

MUSOBAQA SHAROITIDA FUTBOLCHILARINING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARI BO'YICHA NATIJALAR

Turmatov Jasurbek Tolibjon o'g'li

Annotatsiya

Maqolda yosh futbolchilar tomonidan bajariladigan texnik-taktik harakatlarning turli oylar davomida bajarilishi va ularni oylar davomida o'zgarish dinamikasi yoritib berilgan. Keltirilgan natijalar orqali murabbiylar o'quv-mashg'ulotlarda foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: texnik-taktik harakatlar, noaniq harakatlar, turli oylar, samaradorlik ko'rsatkichi.

Zamonaviy futbol tendensiyasi o'yin funksiyalarini universallashtirishga asoslangan, bu taktik harakatlar va texnik usullar qo'llanilishining jadallashtirishiga olib keldi. O'yin tizimini o'zgartirishga bog'liq bo'lgan o'yinchilarning funksional faoliyatini taraqqiy etishi ularning majburiyatlarini kengayishiga olib keldi. Bu o'z navbatida futbolchilarning ixtisoslashishi asosidagi taktik harakatlarni universallashtirishini talab qiladi. Bu kabi yo'nalish futbolchilarning funksional va sport-texnik imkoniyatlariga talabni oshiradi. Shuning uchun futbolchilarning sport formasini tashkil qiluvchi aniq bilimlarga, jismoniy va ruhiy holat, sport faoliyati va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari haqida ma'lumotga ega bo'lish zarur.

Biz ilmiy ishlarimizni 2020-2021-yillar davomida bajarilgan bo'lsa, shu oraliq davomida O'zbekiston chempionatida ishtirok etayotgan "BO'SMN₂" va "BO'SMN₃" jamoa shug'ullanuvchilarining texnik-taktik harakatlarining o'zgarish holati aniqlandi. Futbolchilarni ikkinchi toifa "BO'SMN₂" va "BO'SMN₃" jamoalaridan olingan natijalarda, dastlab qo'yidagicha ko'rinish hosil qildi. Bunda jamoa futbolchilarini ish qobiliyati turlicha ko'rinishga ega bo'ladi. Biz tomonimizdan turli oylardagi futbolchilar tomonidan bajariladigan texnik-taktik harakatlar 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi holatga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, musobaqa davrining oxiridagi uchrashuvlaridagi texnik-taktik harakatlar soni yuqori emasligi aniqlandi. Bu natijalar nazorat va tajriba guruhi sifatida tanlab olingan jamoa futbolchilarida ma'lum bo'ldi. Biz tomonimizdan tajriba guruhidagi natijalar ham yuqori emasligi, musobaqa davrining oxiriga borib texnik-taktik harakatlarni salbiy tomonga o'zgarishi ularda umumiy jismoniy tayyorgarligi yetarli darajada olib borilmasligidan dalolat beradi. Bundan tashqari "BO'SMN₂" jamoa futbolchilarining ko'rsatkichlari dastlabki natijalarda, ham bizga futbolchilarni tayyorgarligi bo'yicha ma'lumot berdi. Bu natijalarda aprel oyidagi 525 marotaba texnik-taktik harakatlarni qayd etgan bo'lsak, qolgan oyidagi texnik-taktik harakatlar soni va samaradorlik ko'rsatkichlariga qaraganda yuqori natijalarni ko'rsatdi. "BO'SMN₃" jamoasining ko'rsatkichlari esa aksincha natijalari yuqori, ya'ni jamoa futbolchilarini eng yuqori natijasi formulaga qo'yib ishlanganda may oyiga, ya'ni 525 texnik-taktik harakatlarni ko'rsatishgan. "BO'SMN₃" jamoasi futbolchilari eng pastki natijasi 468 marotaba texnik-taktik harakatlari oktyabr oyida ko'rsatishgan. Bu natijalar jamoani bir o'yin davomida bajaradigan harakatlaridagi texnik harakatlari ish qobiliyatini pastligi ularning o'yin saviyasini samaradorligini yomonlashishiga sababchi bo'ladi. Jismoniy sifatlarni, mashg'ulot yuklamalarini noto'g'ri qo'yilganligi hamda rejalashtirishdagi qo'yilgan xatolar sababli, ularning negizidagi ish qobiliyati pastligidan dalolatdir. "BO'SMN₃" jamoasining natijalari hozirgi chidam korlik hujumkor futbolda, yetarlicha ko'rsatkich emas.

"BO'SMN₂" jamoasining futbolchilari dastlabki hamda tadqiqot o'rtasidagi olingan natijalar orasidagi farq borligini kuzatdik. Bunda futbolchilarining umumiy tayyorgarlik davridagi va musobaqa davrida umumiy ish qobiliyatini nomaxsus vositalar orqali oshirishga qaratilgan usul va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu ishlab chiqilgan usul yordamida, futbolchilarining umumiy va maxsus ish qobiliyatini oshirishga va shu orqali ular o'yin davomida umumiy jismoniy sifatlarni harakatlanish faolligini, texnik harakatlarni yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

1-jadval

Futbolchilarni turli oylardagi texnik-taktik harakatlarini samaradorlik dinamikasi

Tadqiqotdan oldin		
Oylar	"BO'SMN ₂ "	"BO'SMN ₃ "

	jtth	stth	Sk%	jtth	stth	Sk%
Aprel	525	365	70	515	359	70
May	515	364	71	525	345	66
Iyul	507	355	70	515	338	66
Avgust	501	332	66	509	335	66
Sentyabr	498	315	63	495	312	63
Oktyabr	464	289	62	468	275	59
Tadqiqotdan so'ng						
Oylar	“BO‘SM№2”			“BO‘SM№3”		
	jtth	stth	Sk%	jtth	stth	Sk%
Aprel	585	435	74	519	345	66
May	575	411	71	527	341	65
Iyul	554	401	72	525	325	62
Avgust	530	375	71	512	327	64
Sentyabr	525	365	70	498	301	60
Oktyabr	515	355	69	478	387	81

Jamoa futbolchilarining ish qobiliyati oshgan va ularning o'yin saviyasiga, texnik-taktik harakatlar soni va samaradorligini oshishiga sababchi bo'lmoqda. Tadqiqotlar natijasida jamoa futbolchilarining ish qobiliyati nazorat qilinib, ularni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanildi va olib borilgan tadqiqotlar natijasida qo'yidagi ma'lumotlar aniqlandi. Birinchidan jamoalardan dastlabki va oraliq natijalari orasidagi farq sezilarli darajada o'zgargan va oraliq olingan natija bilan so'ng olingan jamoa ko'rsatkichlari solishtirilib qo'yidagicha ko'rinishga ega bo'ldi. Unda “BO‘SM№2” jamoasi futbolchilarining ko'rsatgan natijalari sezilarli oshgan va “BO‘SM№3” jamoasining futbolchilarini ko'rsatgan natijalari dastlabki olingan natijalar qaraganda o'sish kuzatilsa ham, “BO‘SM№2” jamoasining futbolchilarining ko'rsatgan natijasidan pastligini qayt etdik.

Ikkinchidan jamoalardan olindi va so'ngi ish qobiliyatidan olingan natijalari bir-biriga solishtirib ular orasidagi farq borligini aniqladik. “BO‘SM№3” jamoasining futbolchilari oldingi va so'ngi natijalari solishtirilganda ularning natijalari ilgariqiga qaraganda o'sgan lekin ishonchli emas, sababi ish qobiliyati mashg'ulot davomida o'sish ko'rsatkichi o'zgarishi mumkin. Lekin bu o'zgarishlar ishonchli bo'lishi uchun yetarli emas.

Uchinchidan olib borilgan, bu tadqiqotlarimiz natijasida futbolchilarining ish qobiliyati samaradorligini oshishi uchun turli chora-tadbirlar oldindan ishlab chiqilgan maxsus amaliy tavsiyalar qo'llanildi va bu usul futbolchilarining ish qobiliyatini oshganligini, samaradorligini aniqlash uchun o'tkazildi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jamoalarning tadqiqot davomida ish qobiliyatini samaradorligini, o'yindagi texnik-taktik harakatlariga oshirish uchun qo'llanilgan usul o'z amaliy samarasini berdi.

Ya'ni “BO‘SM№2” jamoasining futbolchilarining tadqiqot guruhi deb olindi va tadqiqot so'ngida ularning natijalari yaxshilandi va o'yin samaradorligi oshdi. “BO‘SM№3” jamoasi futbolchilarini ish qobiliyati o'sish darajasi pastligi tufayli ishonchli bo'lib chiqmadi. Bundan tashqari tajriba guruhimizning turli oylardagi texnik-taktik harakatlari dastlabki olingan natijalar hamda nazorat guruhining natijalaridan yuqoriligi aniqlandi. Bundan nomaxsus vositalarni tayyorgarlik va musobaqa davrlarida o'quv mashg'ulot jarayoniga joriy etishimiz ularni ish qobiliyatini, ayniqsa, chidamkorligini sifatini tushib ketmaslikka olib keladi.

Адабиётлар рўйхати

1. Буравель О. И. Физиологическая характеристика ударно-целевых действий у футболистов: автореф. дис. ... канд. мед. наук. Томск, 2012.
2. Вихров К., Догадайло В. Педагогический контроль в процессе тренировки. Киев: Научно-методический отдел Федерации футбола Украины, 2001. С. 40-45.
3. Савченко О. Г. Формирование технико-тактических действий при розыгрыше углового удара у квалифицированных футболистов на основе математического моделирования: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Малаховка, 2009.

4. Смирнов А. А. Техническая подготовка юных футболистов на основе направленного развития функции вестибулярного анализатора: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Л., 1988.
5. Зациорский В. М., Казаков П. Н., Смирнов Г. А. Факторы, влияющие на точность ударов футболистов // Теория и практика физической культуры. 1975. № 5. С. 5-20.
6. Кураш В. П. Формирование у школьников техники игры в футбол на основе развития целевой точности движений: автореф. дис. ... кан. пед. наук. М., 2006.
7. Подготовка футболистов / под ред. В. И. Козловского. М.: ФиС, 1977. С. 15, 69-93.
8. Лясковский К. П. Техников ударов. М.: ФиС, 1977. С. 5-26.
9. Футбол: типовая учебно-тренировочная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. М.: Советский спорт, 2011.
10. Чанади А. Футбол. Техника. М.: ФиС, 1978. С. 9-25.